



SOCIOLOGICAL STUDY OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT PROCESSES: A CASE OF FOREIGN AND LOCAL RESEARCHERS

Gayrat Sobitovich Quziyev

base doctorate

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: human capital, mentality, demography, transformation, innovation, education, health, social consciousness, potential, capability.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: This article explores the sociological dimensions of societal dynamics and transformation in the development of human capital. It analyzes the scientific research of both foreign and local scholars regarding the essence and stages of human capital development. The author conducts an ethno-sociological investigation of the processes involved in human capital formation. It is concluded for the first time that if any opportunity in the form of capital is not directed toward adaptation to needs, it lacks potential. Human capital comprises several socio-biological integrity components and is oriented toward the society by integrating all aspects of human activity.

INSON KAPITALI RIVOJLANISH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TADQIQOTI: XORIJ VA MAHALLIY TADQIQOTCHILAR MISOLIDA

G'ayrat Sobitovich Qo'ziyev

Tayanch doktoranti

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inson kapitali, mentalitet, demografiya, transformatsiya, innovatsiya, ta'lim, salomatlik. ijtimoiy ong, salohiyat, qobiliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitali rivojlanishida sotsiumning dinamikasi va transformatsiyalashuviga sotsiologik jihatlari hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning inson kapitalining mazmun-mohiyati, rivojlanish bosqichlari ilmiy tadqiqotlari o'r ganilib, tadqiqotchi tomonidan inson kapitalini rivojlanish jarayonlari etnosotsial tadqiq qilingan.

Shuningdek, har qanday imkoniyat kapital timsolida ehtiyojlar uchun moslashtirilishga yo‘naltirilmasin, unda salohiyatga muhtojlik bo‘lishi inson faoliyati barcha tarkibiy qismlarni o‘ziga moslashtirishi hamda, inson kapitali o‘z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo‘naltirib borishi ilk bor tadqiqotchi tomonidan muhim xulosalangan.

СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА: НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ И ОТЕЧЕСТВЕННЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Гайрат Сабитович Кузиев

базовый докторант

Намганско^{го} государственного университета

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: человеческий капитал, менталитет, демография, трансформация, инновации, образование, здоровье, общественное сознание, потенциал, способности.

Аннотация: В данной статье изучены социологические аспекты динамики и трансформации социума в развитии человеческого капитала, а также научные исследования зарубежных и отечественных ученых, посвященные сущности и этапам развития человеческого капитала. Автором проведен этносоциальный анализ процессов развития человеческого капитала. Также впервые сделан важный вывод о том, что если любая возможность в форме капитала не направлена на адаптацию к потребностям, она испытывает дефицит потенциала. Человеческий капитал охватывает в себе ряд социально-биологических целостных компонентов и направляется к социуму, интегрируя все составляющие человеческой активности.

Kirish. Mamlakatda ijtimoiy institutlarning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Jumladan, mahalla instituti, fuqarolik jamiyatni institutlari va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish tizmi raqamlashtirilmoqda. Bularning barchasi avvalo mamlakat farovonligi va inson omili uchun amalga oshirilayotganligidandir. Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat tufayli aholining ta’limi, sog’lig’i, bandligi va farovonligi oshib bormoqda. Jahon va mahalliy miqyosda jamiyatning zamонавиј ijtimoiy-iqtisodiy tizimi faoliyati va uning samaradorligini oshirish

maqsadida mamlakatning har tomonlama tarqqiyoti uchun zarur bo’lgan inson kapitalini o’zganish zarurati vujudga kelmoqda.

Inson kapitali konsepsiyasi hozirgi davrda jahonning iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyatlar farovonligining asosiy yo’nalishlaridan biridir. Bugungi kunda yurtimizda ham inson kapitalini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan Prezident Farmonida 2022 – 2026- yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ni IV-yo’nalishi —Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlanib, 37-70-maqsadlarni o’z ichiga olgan hamda inson kapitalini rivojlantirish bilan bog’liq eng muhim vazifalarni qamrab olgan.

Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini bartaraf etish hamda uni rivojlangan davlatlar safiga olib chiqishda inson resurslariga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan, shaxslarning ta’lim darajasini va intelektual salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni jamiyatga tadbiq etish, shuningdek, innovatsion jarayonlarni kengaytirish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlarni tashkil etilishi inson kapitaliga qaratilgan bo’lib, inson kapitali samaradorligini ilmiy-nazariy asoslarini o’rganish jamiyatning eng dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Jahonning yetakchi ilg‘or tadqiqot markazlari va universitetlarida “inson kapitali” muammosi etnosotsial va milliy identiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Xalqaro miqyosda inson kapitalini takomillashtirishga doir mehnat bozorining samarali ishslash mexanizmlarini joriy qilish, demografik va etnik omillarning urbanizatsiya jarayonlariga ijtimoiy ta’siri, mintaqaviy yoki hududiy xususiyatlarga ko‘ra aholi zichligiga oid muammolar tahliliga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyaning Londondagi «Irqi munosabatlar instituti» (Institute of Race Relations) etnik guruhlarning ijtimoiy va huquqiy tengligi masalalari bilan, ushbu mamlakatning Cardiff shahridagi «Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha ilmiy-tekshirish kengashi» (ESRC, Economic and Social Research Council) etnik va diniy munosabatlarda inson omili masalalarini, Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi Etnologiya va antropologiya institutida «Ijtimoiy ongning etnik, fuqarolik va boshqa formalarini tadqiq etish» bo‘yicha, hamda ushbu ilmiy tashkilot qoshidagi “Sotsiologiya” institutida tashkil etilgan «Millatlararo munosabatlarni tadqiq etish markazi»da “O‘zgaruvchan jamiyatda davlat, fuqarolik, etnik va diniy identiklikning muvozanati va o‘zaro faoliyati” masalalari bilan shug‘ullanadilar. “Insondagi mavjud tug‘ma yoki hayot mobaynida egallangan barcha qobiliyatlarni ko‘rib chiqing. Undagi qimmatli va tegishli sarmoyalar evaziga shakllangan barcha xususiyatlar inson kapitali hisoblanadi”. [2.60] Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini tahlil qilish jarayonida funksional, ya’ni maqsadli yondashuv nuqtai-nazaridan inson kapitali – bu turmush sharoitini yaxshilashga jalb etilgan turli xil investitsiyalar

natijasida shakllangan va inson tajribasi orqali to‘plangan, belgilangan tartiblar asosida foydalilanilayotgan sog‘liq, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, motivlarning ma’lum bir zahirasi bo‘lganligi bois, zamonaviy jamiyat, xususan 2020-yildan boshlab insoniyatning asosiy muammosiga aylangan Juhon Pandemiyasi davrida ushbu jarayonni anglash ehtiyoji va bu fenomenga bo‘lgan qiziqish ortdi.

Ayniqsa, zamonaviy raqamli jamiyatda bilim va ko‘nikmalar transformatsiyasi, ijtimoiy tengsizlik, gender tafovutlari va yoshlar salohiyatining rivojlanishi inson kapitalining sotsiologik o‘lchovlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasida inson kapitalining ijtimoiy omillar bilan bog‘liq shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqola natijalariga ko‘ra, inson kapitali rivojlanishi jamiyatning institutsional islohotlari, ijtimoiy adolat va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani asoslab beriladi.

Inson kapitali mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida XX asrning 60-yillaridan boshlab iste’molga kiritildi. Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari T.Shuls[3] va G.Bekker[4.], amerikalik mutafakkir D.Bell[5] ning ilmiy asarlarida ushbu masalaga e’tibor qaratila boshlandi. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy o’sishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Inson farovonligi va rivojlanish indeksi (Human development index, IFRI) – bu bir yil davomida YAIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi, aholining savodxonlik darajasi, uzoq umr ko‘rish davomiyligini baholaydigan ko‘rsatkichdir. U standart o‘lchov sifatida turli hudud va mamlakatlar hayoti o‘lchovi hisoblanadi. Uning natijalari ilmiy maqolalar va statistik to‘plamlarda beriladi. Bu indeks o‘lchov sifatida birinchi bor 1990-yil pokistonlik Mahbub ul-Hakim boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi tomonidan taqdim etilgan. Keyinchalik IFRIning konseptual tuzilishi Amar Senning faoliyati tufayli rivojlantirildi.[6.39]

Ijtimoiy kapitalni sotsial fenomen sifatida E.Smit, J.Terner, T.Kun[7] lar esa inson omili masalalari bilan bog‘lagan holda, B.Anderson va M.Fuko[8] lar etnomadaniy munosabatlarni insonlar madaniy hayoti va turmush tarzidagi sotsial muammolar bilan uyg‘unlikda, T.Lukman va P.Berger[9] lar esa yaxlit sotsial organizm sifatida, M.Mid, E.Eriksen, R.Mills[10] lar mentalitet doirasida, K.Levin, S.Shulman, P.Alterlar esa milliy-etnik jarayon tarzida tahlil etganlar. MDH mamlakatlarida inson kapitali mavzusining iqtisodiy-demografik jihatlarini Ye.Galayeva, A.Dobrymin, S.Dyatlov, I.Ilinskiy, Ye.Serenova, R.Kapelyushnikov[11]lar, sotsiomadaniy tomonlarini S.Abashin, V.Achkasov, Yu.Granin, L.Russkix, K.Tuayeva, N.Antonova, N.Jukova, T.Stefanenko[12] va boshqa olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o‘zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va sotsiomadaniy meros bilan bevosita aloqador masala ekanligini yortiganlar.

XX asr sotsiologiyasining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker «sotsial shartnomasi» ta’limotini, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, P.Burdy, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin,

P.Nora[13] kabi olimlar inson kapitalining sotsial fenomen sifatida rivojlanib borishini etnosotsiologik yondashuvlar tizimida sotsiomadaniy kontekstda o‘rganish fikrini ilgari suradilar.

Mamlakatimizda inson kapitalini iqtisodiy jihatdan S.G‘ulomov, Q.Abdurahmonov, J.Ataniyazov, T.Jalilov, B.Usmonovlar[6] rivojlantirish uchun tadqiqotlar olib borishgan. Inson kapitalining sotsiologik jihatlari – M.Bekmuradov, A. Umarov, A.Xolbekov – ijtimoiy-madaniy omillari, inson kapitali rivojlanish jarayonlarini etnossiologik xususiyatlari – M.Sodirjonov, sotsial kapitalning aholi turmush sifatini oshrishdagi ahamiyati – X.Akramov, O‘zbekiston maktab ta’limi tizimida inson kapitalini rivojlanitirishning sotsiologik tahlili – U.Xamidjonovlar tadqiq etishgan[7] bo’lsa, inson faravonligi va salomatligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan mamlakatimizda M.Abdullaeva, G.G‘affarova, M.Sharipov, A.Abdullaev, F.Qosimov, M.Muxammedov, M.Norqobilov, D.Ernazarov[8] lar tomonidan o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar. Inson kapitalini rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash masalasi sharq mutafakkirlari asarlarida ham o‘z dolzarbligini yo’qotmagan. Jumladan, Abu Nasr Farobiya ko’ra “Jamiyatni rivojlantirish uchun har bir inson o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi zarur. Bilim olish va uni jamiyat foydasi uchun qo’llash insonning eng yuksak maqsadi hisoblanadi” – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, jamiyatning rivoji va farovonligi unda yashab turgan odamlarga va ularning aqliy salohiyatiga bog’liq. Aqliy salohiyat esa shak-shubhasiz bilim orqali rivojlantiriladi. Sharqning Aristoteli nomi olgan buyuk olim Abu Rayxon Beruniy esa, insonning tug’ma qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim olish va tinimsiz o‘rganishni tavsiya etgan va u “Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bo’lgan talablarni keltirib chiqaradi” deya ta’kidlagan. Haqiqatdan ham inson jamiyatda yashash davomida bir qator ehtiyojlarga zarurat sezadi. Bu ehtiyojlar esa o‘z-o‘zidan insonni ilm olishga undaydi. Va bu olingan bilimlar orqali inson nafaqat o‘ziga balki jamiyatga ham katta foyda keltiradi.

Sotsiologik yondashuv nuqtai nazaridan inson kapitali jamiyatni rivojlanishi, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy o‘zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarga chuqur ta’sir etuvchi muhim omil sifatifa e’tirof etiladi. Bu tushuncha insonlarning bilim, qobiliyat, aloqa, salohiyat va malakalari orqali jamiyat taraqqiyotiga qo’shgan hissasini aks ettiradi.

Ta’kidlash lozimki, mavjud zamonaviy jamiyat o‘ziga xos tizim va tuzilmalarga ega bo‘lib, uning ijtimoiy xatti-harakatlari mazmuni, etnomadaniy shart-sharoitlari aholining tarkibiy qismi, joylashuvi, ekologik vaziyat, demografik-geografik omillar, hulq-atvor, madaniyat va axborot almashinuv xususiyatlari belgilab beradi. Bu borada Farg‘ona vodiysida istiqomat qiladigan aholi kundalik hayoti, turmush tarzidagi xususiyatlarda inson kapitali masalalari etnosotsiologiya yo‘nalishida atroflicha va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Xususan, shu paytgacha bo‘lgan kompleks sotsiologik tadqiqotlarda milliy va etnik munosabatlarda inson omilini hududiy nuqtayi

nazardan chuqur ilmiy asoslash imkoniyatini beradigan davriy qiyosiy ma'lumotlar yetarlicha mavjud emas.

Shu bois, etnosotsiologik tadqiqotlarda inson kapitalining ijtimoiy jihatlarini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan dissertatsiya ishimiz mazkur kamchiliklarni muayyan darajada to'ldirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Etnosotsial jarayonlarda kechayotgan innovatsion jarayonlar misolida biz sotsiumning dinamikasi va transformatsiyalashuviga sotsiologik jihatdan baho berishimiz mumkin. Chunki har qanday inson omili bir manzildan ikkinchisiga ko'char ekan, uning asosida innovatsiyalar, ya'ni yangiliklar va o'zgarishlar yotadi. XX asrning 30 yillaridan boshlaboq ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, ular texnologik va asr so'ngiga kelib axborot-texnik inqiloblar natijasida vujudga kelganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Hozirgi ilmiy-nazariy diskursda inson kapitalining innovatsiyalar bilan bog'liqligi xususida ko'p martalab ilmiy mulohaza yuritilmasisin, unda etnosotsial omillarning ham o'rni yuqoriligini inkor etish qiyin. Dunyo tajribasida "Yapon mo'jizasi", "Osiyo yo'lbarslari" (Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya kabi davlatlar nazarda tutiladi), "Qayta uyg'ongan Xitoy" kabi atamalarning ilmiy talaffuzga kiritilgani, hamda iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, ijtimoiy rivojlanish sohalarida foydalanimayotganligi ma'lum.

Har qanday imkoniyat kapital timsolida ehtiyojlar uchun moslashtirilishga yo'naltirilmasin, unda salohiyatga muhtojlik bo'ladi. Shuning uchun aytish mumkinki, inson faoliyati barcha tarkibiy qismlarni o'ziga moslashtiradi. Inson kapitali o'z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo'naltirib boradi. Bular: demografik komponent, sog'liqni saqlash komponenti, ta'lim komponenti, mehnat komponenti, madaniy komponent, fuqarolik komponenti, ma'naviy-ahloqiy komponent, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilar. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlariga, funksional imperativlarga mos keladi. Masalan, demografik komponent yangi avlodlar uchun ijtimoiy kapital shakllarini belgilab bersa, sog'liqni saqlash komponenti jamiyatning jismoniy va ruhiy salomtligini tiklashga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtiradi, ta'lim kapitali esa bilim va tajribani, mehnat esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va turli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni namoyon etadi. Va boshqa komponentlarni ham shu tarzda davom ettirish mumkin.

Xulosa. Inson kapitali rivojidagi muhim omilni demografik tarkibiy qism bilan bog'liq ijtimoiy muhit shaxs va jamoalarning hududiy elementlarini avloddan avlodga o'tadigan vorisiylik tizimi belgilaydi. Demografik asosga qurilgan kapitalning asosiy tuzilmasi hisoblangan sog'liqni saqlash yoki salomatlik komponenti uzoq yillar davomida sifatli tibbiyot yordamida jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllangan

qadriyatlar tizimiga aylanib bordi. Ayniqsa 2020-yilning mart oyidan boshlab butun dunyo bo‘yicha COVID-19 koronavirusi tufayli e’lon qilingan Jahon pandemiyasi sharoitida sog‘liq va salomatlik butun insoniyat uchun birinchi raqamli qadriyat sifatida inson kapitalini tashkil etdi. Tadqiqot davomida inson salohiyatini tavsiflashda “faoliyat” yondashuvi va shuning asnosida shaxs hamda jamoalarning ehtiyoj, qobiliyat kabi ijtimoiy rol va funksiyalarni bajarishga tayyorlik tizimi tahlil etiladi. Inson salohiyatining asosini “qobiliyat”, qobiliyatning asosini esa “ehtiyoj”lar tashkil etar ekan, unda kapital kategoriyasi “ixtiyor etish”, ya’ni ehtiyoj va qobiliyatni harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida gavdalanadi.

Hozirgi davrda insoniy va jamoaviy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini izohlashda ularning ehtiyojlar kapitalini asosi bo‘lgan “sotib olish” (moddiy jamg‘arma, bilim, ijtimoiy aloqalar, nufuz) funksiyasi, hamda iqtisodiy resurs (manba)lar, ya’ni ko‘chmas multk, aksiya, xususiy biznes kabilarning nimaga yoki qaysi tomonlarga yo‘naltirilganligi zamonaviy tendensiyalarni o‘zida ifodalagan sotsiologik tasniflar bilan tadqiq etilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Миллс Р. Властвующая элита. – М.: Издательство иностранной литературы, 2010. / Перевод с англ. Е.И.Розенталь, Л.Г.Рошаль, В.Л.Кон. – С. 406.
2. Галаева Е.В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. 1997. №7–8. С. 244–255.
3. Русских Л. Идентичность: культурная, этническая, национальная. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Социально-гуманитарные науки», 2013. – С. 178-180.
4. Becker H. Discontinous change and generational contracts. London, 2000; Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. Berlin, 2005.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidalg‘i PF-60-sonli Farmoni
6. Гулямов С., Очилов Н., Сайдаҳмедов О. Интеллектуал иқтисодиёт самарадорлик омиллари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – 2015. – №6. – Б. 38-41.
7. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – 436 б.
8. Абдуллаева М.Н., Faффарова Г.Ф. Инсон капитали таълим призмасида // Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда инновацион ғояларнинг ҳуқуқий, иқтисодий, ижтимоий-фалсафий, таълимий йўналишларининг ривожланиш истиқболлари: Республика онлайн анжуман материаллари. – Тошкент, 2020.
9. Содиржонов, М. (2023). Мониторинг вопросов исследования человеческого

капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции. in Library, 21(2), 608–620.

10. Содиржонов, М. (2021). Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах . in Library, 21(4), 59–69.